

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Muborak Rustam qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

E-mail: abdullayeva.muborak@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida Blum taksonomiyasidan samarali foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Unda o‘quvchilarning bilim darajasini bosqichma-bosqich oshirish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, har bir bosqichga mos dars rejasi va topshiriqlarni shakllantirish orqali til o‘rgatish samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Blum taksonomiyasi, ingliz tili, ta’lim metodikasi, tanqidiy fikrlash, dars jarayoni, pedagogika.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важность эффективного использования таксономии Блума в процессе преподавания английского языка. Раскрываются методические подходы, способствующие поэтапному развитию уровня знаний учащихся, формированию критического мышления и творческого подхода. Также анализируются способы повышения эффективности преподавания через составление плана урока и заданий на основе уровней таксономии.

Ключевые слова: *Таксономия Блума, английский язык, методика преподавания, критическое мышление, учебный процесс, педагогика.*

ABSTRACT

This article explores the significance of effectively using Bloom’s Taxonomy in teaching English as a foreign language. It highlights instructional strategies that foster a step-by-step improvement in students’ knowledge, the development of critical thinking, and creative approaches to learning. Additionally, it analyzes ways to enhance teaching effectiveness by designing lesson plans and assignments aligned with the taxonomy levels.

Keywords: *Bloom’s Taxonomy, English language, teaching methodology, critical thinking, lesson planning, pedagogy.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiya va yondashuvlardan foydalanish o'zining sezilarli natilarini ko'rsatmoqda. Xuddi shunday texnologiyalardan biri Blum taksonomiyasi, mazkur taksonomiya darajalari ham til o'qitish tizimida ahamiyatli hisoblanadi. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum¹ tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O'quv maqsadlari taksonomiyasi-o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali tizimlashtirish hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR.

Insoniyat tarixida yozuv ixtiro etilgandan so'ng, nafaqat fikrni yozma bayon etish, balki yozma matnni o'qish masalasi ham yuzaga chiqdi. Turli xalqlar hayotida turfa yozuvlar kashf etilgan. Jumladan, xitoyliklarda piktogramma, O'rta Sharqda arab yozuvi, Ovrupada lotin yozuvi, kirill yozuvi va boshqalar xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan bo'ldi. Binobarin, yozuv insoniyat jamiyatidagi eng muhim kashfiyotlardan biri hisoblanadi, chunki yozuv orqali ajdod va avlod orasidagi uzviylik ro'yobga chiqadi. Yana shuni qo'shimcha qilish zarur ko'rinadiki, matn o'qish zamonamiz kishilarining axborot egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhim vositasi hamdir. Demak, matn o'qish bevosita yozuv bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Yozma bayon etilgan ma'lumot o'qish tufayli o'zlashtiriladigan kundalik turmush hodisasiga aylandi.


Har qanday fan bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda dastavval, o'sha sohaning tarixiga nazar solish odat tusiga kirgan. Fikrimizning dalili sifatida chet tilda o'qishni o'rgatishning ko'hna tarixiga murojaat qildik. Chet til o'qitish metodikasini rivojlantirishga yuksak hissa qo'shgan olimlar qatorida ingliz professorlari Maykl Filipp Uest, Harold Eduard Palmer, Amerika professorlari Charlz Karpentr Friz, Robert Lado, rus professorlari Igor Vladimirovich Raxmanov, Valentina Samuelna Setlin, Sofya Kirillovna Folomkina, o'zbek professorlari Jamol Jalolovich Jalolov, Gulnora Turdioxunovna Maxkamova, Tojimat Qodirovich Sattarovlarni nomlarini keltirish o'rinlidir. Tarixdan bizga ma'lumki, yuqorida sanab o'tgan bir qator olimlarimizdan H.Palmer va M.Uest ikkalasi ham to'g'ri metod (direct method) asoschilaridan hisoblanib, H.Palmer og'zaki nutqni, M.Uest o'qishni

¹ Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York : Longmans, 1956. – 207 p.

o'rgatish bo'yicha bir qancha ilmiy asarlar yaratishgan. O'qishni o'rgatish yuzasidan M.Uest yetakchi nutq faoliyati turi sifatida uzoq vaqt shug'ullangan bo'lsada, olim ilgari surgan g'oyalar mukammal hal bo'lgan deb ayta olmaymiz. Ammo olimning mehnatlari til o'qitish metodikasi rivojida katta yutuqlar qo'lga kiritilishini ta'minlagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Kommunikativ kompetensiya tarkibi uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartiga k'ora chet o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir. Mazkur standartda kommunikativ kompetensiya quyidagi turlarni 'z ichiga oladi²: Lingistik kompetensiya ya'ni fonetika, leksika, grammatika haqida bilimlar va nutq faoliyat turlari tinglash, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Ushbu kompetensiya tarkibiga kiruvchi pragmatik kompetensiya o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash, va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritiladi. Mazkur kompetensiya o'gzaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi o'gzaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va inerpretatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi. Shu kabi pragmatik aspektlarni takomillashtirishda Blum taksonomiyasi ahamiyatlidir. Yuqorida aytilganidek Blum taksonomiyasi olti bosqichdan iboratdir:



1.1-rasm. Blum taksonomiyasi bosqichlarining tashqi ko'rinishi.

Yuqorida keltirilgan taksonomiya darajasi ingliz tili o'qitish maqsadlarini va kompetentlik darajasini ierarxik strukturada namyon etgan ya'ni osondan qiyinga,

²Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti.

shu asosda o'qitish prinsiplarini mujmalligini ochish imkoniyati yaratilgan, bu esa, kognitiv qoidalar asosida qulay o'qitish loyihasini yaratish, o'quv materiallarini tuzish imkoniyatini hosil qiladi³. Ko'p yillar davomida xorijiy tillarni o'qitish negizida faqatgina lingvistik kompetensiyani egallash, batafsil aytilganda grammatika va lug'at-so'zni o'rganish bilan kifoyalangan. Biroq, kommunikativ yondashuv kirib kelgandan so'ng, huddi shu til birliklarining funksiyasini ham bilish, til o'qitishning vazifasi qilib belgilangan, bu esa ijtimoiy va pragmatik kompetensiyalarning produktiv nutqda faol namoyon bo'lishini talab qiladi. Shu tariqa kommunikativ muloqotdagi tushunmovchiliklarning oldi olindi, shuningdek madaniyatlaraaro muloqot streotiplari ham keng rivojlandi⁴. Blum taksonomiyasi huddi shu kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy o'quv vositasi hisoblanadi.

Blum taksonomiyasi, ayniqsa, til o'qitish jarayonida o'quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu taksonomiya o'quvchilarga o'z fikrlarini anglash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini kuchaytiradi, ya'ni ularning tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki ijtimoiy va pragmatik maqsadlarda ham to'g'ri va samarali ishlata olish qobiliyatini oshiradi.

Taksonomiya bosqichlari o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganishni, balki uning real hayotdagi funksiyalarini tushunishni o'rgatadi. Matnlarni tahlil qilish va sintez qilish, shuningdek, matn mazmunini baholash orqali o'quvchilar o'zaro muloqotda to'g'ri va samarali fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon til o'rganishning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilarni global kommunikativ muhitga tayyorlaydi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv orqali o'quvchilar turli madaniyatlarni yaxshiroq anglab olishadi, tilning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunadilar.

Blum taksonomiyasining o'quvchilarning fikr va mulohazalarini chuqurroq rivojlantirishi, tilni to'g'ri va maqsadga muvofiq ishlatish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu metodika o'qituvchilarga o'quvchilarning tilni faqat yozma yoki og'zaki shakllarda emas, balki turli real hayotiy vaziyatlarda ham ishlata olishlarini ta'minlash imkonini beradi. Taksonomiya yordamida o'quvchilarni nafaqat grammatika va lug'at boyligi bilan, balki tilning ijtimoiy va pragmatik jihatlarini bilan ham tanishtirish mumkin. Bu yondashuv, o'quvchilarning tilni muomala vositasi sifatida qanday ishlatishni, shu bilan birga madaniyatlararo aloqalarni qanday qurishni o'rgatadi.

³ Jiao Chen, Yuxuan Zhang, Wenjun Zhong. Application of Bloom's taxonomy to teaching design of English for Specific purpose. BCP Education & Psychology ESS 2022. Volume 7.

⁴ Yined Tello Rueda. Developing pragmatic competence in a Foreign language. Thoritical discussion paper. 15.05.06.

Shunday qilib, Blum taksonomiyasi, o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularga tilni turli kontekstlarda samarali ishlatish imkoniyatini berish bilan, til o‘qitish jarayonini yanada samarali va zamonaviy qiladi. Bu metodik yondashuv til o‘rganishning yangi, kommunikativ yondashuviga mos ravishda ishlaydi va o‘quvchilarning tilni faqat bilish emas, balki uni ijodiy va amaliy jihatdan ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir⁵.

Bilish bu dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo‘nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstract bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi. Bilish darajasida o‘rganuvchi o‘qitish maqsadining asosiy kategoriyalari quyidagilar hisoblanib axborotni takrorlash yoki tanib olish, ma'lumot va ma'lumotlarni esga olish yo‘li bilan yodlab olinadigan toifadir. Bilish va fikrlash darajasi past. Ushbu darajada testlar, etishmayotgan belgilarni almashtirish, ta'riflar va nomlarni yodlash yoki takrorlash, jarayonlarning takrorlanishi yoki jarayonlarni takrorlash kabi vazifalar qo‘llaniladi.

Tushunish - darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o‘zgartira oladi (so‘zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Tushunish darajasida o‘qitish maqsadining asosiy kategoriyalari quyidagilar Bilim va fikrlash darajasi o‘rtacha. O‘quv materialini tushunish sifatida quyidagi harakatlar ko‘rib chiqilishi mumkin: tarjima o‘quv materialini bitta “tildan” boshqa “tilga” o‘tkazish (masalan, matematik formulalarni og‘zaki ravishda ifodalash; jadval, diagrammalarda og‘zaki ma'lumotlarni taqdim etish va boshqalar); talqin - o‘quv materialini “o‘z so‘zlari bilan”, qisqacha tavsif; Bashorat qilish - suhbatning nima bo‘lishini, uning oqibatlari va natijalarini o‘quv materiallari asosida bashorat qilishdir. Talaba natijalarai ko‘rsatkichlari Faktlarni, qoidalarni, tamoyillarni tushunadi; So‘z materialini, sxemalarni, grafiklarni, diagrammalarni o‘zgartiradi.

Qo‘llash - darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noan’anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma’lum bir model, formula, ko‘rsatma asosida to‘g‘ri qo‘llaydi. O‘qitish maqsadining asosiy kategoriyalari bilim va fikrlash darajasi o‘rtacha. Ushbu toifaga o‘quv materiallarini haqiqiy vaziyatda va mutlaqo yangi vaziyatda qo‘llash kiradi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarning amaliy qo‘llanilishi kiradi. Ta’lim

⁵Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York : Longman, 2001. – 352 p.

natijalari materialning rang darajasidan ko'ra chuqurroq mahorat talab qiladi. Talaba natijalari ko'rsatkichlari kontseptsiya va printsiplarni yangi vaziyatlarda qo'llaydi; haqiqiy vaziyatlarda qonunlar va nazariyalarni amalda qo'llash; usul yoki ish oqimi to'g'ri ishlatilganligini bildiradi.

Tahlil qilish - darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. O'qitish maqsadining asosiy kategoriyalari Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O'quv materialining tuzilishini aniq qilish uchun uni tarkibiy qismlarga ajrating: butun qismlarni ajratib oling; butunning qismlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlang, butunning qanday tashkil etilganligini his qiling. Ushbu kategoriya, o'quv materialining mazmunini idrok etishdan tashqari, uning ichki tuzilishi qanday shakllanganligini ham anglatadi. Talaba natijalari ko'rsatkichlari Yashirin (ko'rinmas) narsalarni ochib beradi; fikrni rivojlantirishdagi xato va kamchiliklarni aniqlaydi, faktlarni va ularning oqibatlarini farqlaydilar; taqdim etilgan dalillarning ahamiyatini aniqlaydi. Tahlil darajasiga muvofiq fe'l namunalari keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Sintez - Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko'rinishini yaratadi. Bu bosqich tegishli natijalardan yangi jadval tuzishga urg'u beruvchi ijodiy xarakterdagi faoliyatni taqozo etadi. Bunday o'quv natijalari yangi mazmun va yangi tuzilmalarni yaratadigan ijodiy faoliyatdan foydalanishni talab qiladi. Talaba natijalari ko'rsatkichlari qisqa ijodiy ish (insho) yozadi; eksperiment uchun o'z rejasini taqdim etadi; har qanday muammoni hal qilish uchun o'z bilimlaridan ijodiy foydalanadi. Sintez darajasiga muvofiq fe'l namunalari yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, tuzish, loyihalash.

Baholash - Mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyal bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. O'qitish maqsadining asosiy kategoriyalari bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. Ushbu daraja oldingi toifalarning o'rganish natijalariga erishishni anglatadi. Talaba natijalari ko'rsatkichlari o'quv materialining tuzilish mantig'ini yozma ravishda baholaydi;

ichki yoki tashqi mezonlar asosida o'quv materialining ahamiyatini aniqlaydi; qaror va xulosalarning faktlarga bog'liqligini aniqlaydi. Baholash darajasiga muvofiq fe'l namunalari tashxislash, isbotlash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

XULOSA.

Blum taxsonomiyasi bosqichlari o'quv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o'quv maqsadlarini aniq va tizimli belgilashga yordam beradi. Shuningdek, bu bosqichlar orqali o'quvchilarda nafaqat bilim olish, balki ularni chuqur tushunish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalari ham shakllanadi. Bundan tashqari, taxsonomiya tafakkur darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi, ya'ni o'quvchilar asta-sekin oddiy bilimdan murakkab tahlil va ijodga o'tadilar. Shu bilan birga, ushbu tizim asosida baholash mezonlarini aniqlash osonlashadi, bu esa adolatli va aniqlik asosidagi baholashni ta'minlaydi. Yana bir muhim jihati shundaki, Blum taxsonomiyasi o'quv jarayonini samarali rejalashtirishda va darslarni puxta tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Nihoyat, bu taxsonomiya orqali o'quvchilarda tahlil qilish, baholash va ijodkorlik kabi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Qolaversa, Blum taxsonomiyasi bosqichlari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi, chunki ular orqali o'quv maqsadlari aniq belgilanadi va o'quvchilar bosqichma-bosqich fikrlash darajalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, bu taxsonomiya o'quvchilarning bilimlarini baholash, tahlil qilish va ijodiy fikrlash kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ikromxonova F.I. Ingliz tilidan kommunikativ-kognitiv korrekativ kurs nazariyasi va amaliyoti: kand.diss.-T., 2012.-157b.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Abdujabbarova Z.R. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga ingliz tilida qo'shimcha matnlar o'qitish texnologiyasi: nom.diss.-Toshkent:TDPU,2012.-163b.
4. Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetentsiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida): avtoref.diss ... (PhD). – Toshkent, 2018. – 44 b.
5. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку. - М.,1989.
6. Зимняя И.А. Смысловое восприятие речевого сообщения в условиях массовой коммуникации: Учебное пособие. – М., 1976.